

Mashg'ulotning maqsadi

O'quvchilar tabiatning inson va hayvonlar hayotida muhim o'ringa egaligini tushunadi. Ular tabiat resurslarining cheklanganligini, ekologik muvozanat buzilsa, qanday oqibatlarga olib kelishini va tabiatni qanday asrash mumkinligini o'rganadi.

Mashg'ulot davomiyligi

35 daqiqa

Interfaol resurslar

Platformadagi interfaol resurs 2-sinf Tabiiy fan (science) darsligining III bob 90-sahifasidagi "Tabiat uchun foydali yoki tabiat uchun zararli" deb nomlangan topshiriq asosida tayyorlangan.

Muhim va asosiy nazariy qism

Tabiat - bizni o'rab turgan butun jonli va jonsiz muhit. U inson va hayvonlarning yashashi uchun zarur bo'lgan resurslarni beradi:

 O'simliklar - karbonat angidridni yutib kislorod ishlab chiqaradi va oziq-ovqat manbai hisoblanadi.

 Suv - insonlar hayotida eng muhim, ekinlarni sug'orish va hayvonlarning yashashi uchun juda zarur.

 Havo - butun tirik jonotlar nafas olishi uchun judayam muhim.

 Hayvonlar - tabiiy muvozanatni saqlaydi va ekotizimning ajralmas qismi hisoblanadi.

STEM fanlar bilan integratsiyasi

- ◆ **Tabiiy fanlar** - Ekologiya, tabiat resurslari va ularning muhofazasi.
- ◆ **Matematika** - Suv va elektr tejash bo'yicha hisob-kitoblar.
- ◆ **Texnologiya** - Atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ekologik texnologiyalar (quyosh panellari, suv tozalash tizimlari).
- ◆ **Informatika** - Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va onlayn resurslar.

Tabiatni asrash uchun quyidagilarni qilish kerak:

- ☒ Daraxt ekish va noqonuniy daraxt kesishning oldini olish.
- ☒ Suv va elektr energiyasini tejash.
- ☒ Plastmassa va chiqindilarni qayta ishlash, chiqindini belgilangan joyga tashlash.

Qiziqarli fakt

 Yer yuzidagi harorat so'nggi 100 yil ichida o'rtacha 1°C ga oshib bormoqda, bu esa muzliklarning erishi va ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda.